

TURLI YOSH DAVRLARIDA IJTIMOYIY TARMOKLARGA TOBELIKNING NAMOYON BULISHI DETERMINANTLARI

Gapparova Mastona Safaraliyevna

Angren Universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi m-
gapparova@umail.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10939990>

Bugungi kunda dunyo turli sohalarda o'zgarib, shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Ilm olish, kasb-kor bilan shug'ullanish insonlarning o'zaro muloqot va fikr almashinuvida ham yangidan yangi o'zgarishlar bo'layotgani hech kimga sir emas. Interent, uyali telefon, ijtimoiy tarmoq orqali muloqot va axborot almashinuvga xizmat qiluvchi faysbuk, tvitter, vayber, telegram kabi dasturlar shular jumlasidandir. Ilm-fanning yutug'i bo'lmish bu yangiliklar insonlarning uzog'ini yaqin, mushkulini oson qilayotgani shubhasiz. Shu bilan birga, bu kashfiyotlar olis masofadan turib ilm olish, dunyo yangiliklaridan bir zumda voqif bo'lish va ma'lumotlarni oson tarqatish imkonini ham beradi. Biroq, keyingi yillarda mazkur tarmoqlarning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan jihatlari ham ko'zga tashlanayotgani ko'pchilikni tashvishga solishi tabiiy. Chunki, keljagimiz poydevori bo'lgan yoshlarning soatlab bu tarmoqlarda maqsadsiz o'tirishi ilm olish, kasb-hunar egallash va boshqa xayrli ishlarga sarflanishi kerak bo'lgan guldek umrining behuda va besamar ketishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan ma'lumotlarning katta qismini yoshlar ma'naviyatining tubanlashuviga turtki bo'luvchi, milliy va diniy qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabarlar, urf-odatlar tashkil etadi. Bu esa, Internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa zamonaviy telekommunikatsiya yutuqlaridan foydalanish tizimini tartibga solish, ularning imkoniyatlaridan oqilona istifoda etish, muayyan odob-axloq qoidalarga amal qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda... Inson salomatligi u oziqlanayotgan ne'matlar sofligiga bog'liq bo'lganidek, shaxs dunyoqarashining sog'lomligi va ilm saviyasi o'zlashtirayotgan ma'lumot va bilimlarining manbalariga bog'liqdir. Shu sababdan, davrimizda internet tarmog'idan foydalanish odobi ijtimoiy odoblarning eng ahamiyatlilaridan biri hisoblanadi.

Aslida, internet, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarni tashkil etishdan asosiy maqsad ilm olish imkoniyatlarini osonlashtirish, o'zaro munosabatlarda qulaylik yaratish edi. Biroq bugungi kunga kelib, ularning vazifalari tobora kengayib, maqsadlari ham o'zgarib bormoqda.

Har narsaning yaxshi va yomon tarafi bo'lganidek, so'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarning ham jiddiy xatarlari yuzaga chiqmoqda. Jumladan, ayni davrda ayrim buzg'unchi oqimlarning internetdan g'arazli maqsadlar foydalanayotgani, yoshlarni o'z domiga tortayotgani, ayrim saytlarda bexayolik, turli fitnalar jamiyatni beqarorlashtiruvchi yolg'on ma'lumotlar berilayotganini kuzatishimiz mumkin.

Shuning uchun ham xalqimiz, xususan, yoshlarni ana shunday xatarlardan ogoh etish har bir ziyoli insonning eng dolzarb vazifasiga aylanib bormoqda. Zero, hozirgi davrda eng asosiy muammoga aylangan illatlardan biri yolg'on axborotdir. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda turli asossiz ma'lumotlarni tarqatish, turli bo'xton va uydirmalarni urchitish holatlari ko'plab uchramoqda. Ayrim sodda insonlar mana shunday uydirmalarga ishonib, yolg'on va bo'xtonga sherik bo'lib qolmoqda. Eng achinarlisi, ko'pincha tarqatilgan yolg'on ma'lumotlar oqibatida insonning obro' va sha'ni toptalmoqda, shariatimizda qaytarilgan katta gunohlarga yo'l ochilmoqda.

Shariatimizda har bir musulmonning sha'ni va obro'sini to'kish xuddi qonini to'kish yoki molini o'zlashtirish kabi boshqa musulmon uchun haromdir.

So'ngi yillarda internet siyosiy kurashlar maydoni, turli xil manfaatlarining kuchli quroliga ham aylanib bormoqda.

Buzg'unchi to'dalar, ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan keng foydalangan holda odamlarni, ayniqsa, yoshlarni to'g'ri yo'ldan adashtirish, ulardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanish, jamiyatda nifoq chiqarish hamda eng achinarlisi, urush olovini yoqishga urinishmoqda va bunga ma'lum ma'noda erishishmoqda ham.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali dindan, shariatdan gapirayotgan, lekin aslida kimligi ham, kimdan ta'lim olgani ham noma'lum kimsalardan din olinmaydi. Chunki fatvo bu din demakdir. Shuning uchun mashhur tobein Muhammad ibn Siyrin rahmatullohi alayxi "bu ilm – dindir. Dinlaringizni kimdan olayotganingizga qaranglar" deganlar (Imom Muslim rivoyati)

Bilamizki, bugungi kun aholisi texnologiya nihoyatda shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yashamoqda. XXI asr-texnologiya asridir. Globallashuv zamonida internetdan foydalanish odat tusiga aylanib ulgurgan va hattoki, busiz hayotimizni tasavvur qilolmaymiz. Internet tarmoqlari, mobil aloqa, onlayn tizim va texnologiyaning insonga ta'siri keskinlashayotgan bir vaqtda ulardan foydalanishning yo'llari ham ko'payib bormoqda. Bugungi kun ruhshunoslari fikriga qaraganda yoshlarda buzg'unchi hamda destruktiv g'oyalarga qarshi kurashish immuniteti to'liq shakllanmaganligi sababli ko'rgan va o'qigan narsalariga ishonish instinkti kuchliroq bo'lar ekan. Bu holatda internetdan salbiy tomonlama foydalanishning yoshlar ruhiyatiga yomon ta'sir qilishi ko'rinib turgan va isbot talab qilmaydigan ayni haqiqatdir. Avvalo, yosh mutanosibligini tahlil qilsak. Globallashuv zamonida har qaysi mustaqil shaxsda o'z shaxsiy mobil telefoni borligi kundek ravshan. Demokratik davlatda yashayotganimizni hisobga olib aytsak, har bir insonda huquq erkinligi mavjud. Hozirgi kunda necha yosh bo'lishidan qat'it nazar har qanday yosh avlod o'z xohishiga ko'ra istagan saytidan istalgan yo'lda foydalanmoqda. Albatta, bu yo'lda ijobiy harakatlar, izlanishlar bor, ammo tangananing ikki tomoni bo'lganidek, har bir foydalanuvchi ham to'g'ri ma'noda mobil internet va saytlardan foydalanmaydi. Bermoqchi bo'lgan misollarim orqali ilgari surayotgan go'yamni ochib berishga harakat qilaman. Mobil saytlar shu qadar puxtalik bilan yaratilganki, har qanday insonni 2 soniya bo'lsa ham o'ziga jalb qila oladi. Ma'lum maqsadda inetenetdan foydalanayotgan iste'molchi o'z qiziqishlariga oid havolalar, videoroliklar, fotosuratlar yoki ma'lumotlar ko'rishi bilan beixtiyor uni jalb qila olgan saytga tomon bir qadam bo'lsa ham tashlashi tabiiy. Yoshlarning salohiyati yetib-yetmay har xil turdagi o'zlariga taalluqli bo'lmagan saytlarda faol bo'lib qolishmoqda. Bu esa yoshlarda ilm-fan, o'qish, ijtimoiy sog'lomlikka bo'lgan moyillikni susaytiradi. Bu turdagi muammolarni sanab tugatish qiyin. Men ushbu maqolada aynan shu muammoni ilgari surib chiqmoqchiman. Yechim tomon tashlanishi kerak bo'lgan ilk qadam –saytlarni yoshga qarab muvofiqlashtirib chiqish deb o'ylayman. Har bir ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi internetda o'zi uchun „Yuz indeksi –Face ID“ kiritishi kerak. Unda foydalanuvchining ismi, familiyasi, yoshi va shaxsiy ma'lumotlariga doir har bir narsa aks ettirilishi shart. Shu bilan birga har bir sayt ham o'z ijtimoiy kelib chiqishi, o'z ichiga olgan ma'lumotlari va foydalanilishiga qarab yoshlarga toifalanishi kerak. Foydalanuvchi yoshiga aloqador bo'lmagan saytga kirganda uning „Face ID“ si uni ushbu saytdan foydalanishi uchun yo'l qo'ymaydi. Qarabsizki, har bir

ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi faqat o'ziga aloqador bo'lgan saytdangina foydalana oladi. Buni qaysidir ma'noda internetda erkinlikni cheklash deb o'ylashlari mumkin, chunki biz suveren davlat fuqarolarimiz, ammo ta'kidlash joizki, salbiy tomonni zaiflashtirish uchun har bir jarayon va har bir shaxs mas'uldir. Bu chora-tadbirlarning hammasi yaxshilik uchun xizmat qilishi shubhasizdir. Bu yo'lda amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlardan yana bir –saytlar oralig'idagi reklamalarning kamaytirilishi. Tan olish kerakki, bu, albatta, qaysidir kompaniya rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi, negaki reklamada keltirilgan mahsulotdan bexabar bo'lgan odamning e'tiborini tortish nisbatan osonroqdir. Bu ham o'sha kompaniyaning o'z haq-huquqlaridan biri hisoblanadi, ammo kelajakka bo'lgan qadamlarda yoshlarimizning ishtiroki kattaekanligini hisobga olishimiz kerak, ya'ni bugungi kun yoshlari qiziquvchidir. Kerakli saytlardan kerakli yo'lda foydalanayotgan kishi, albatta, bir xillikdan qochib, fikrini chalg'itishi mumkin. Vaholanki, keltirilgan reklama ichida ushbu foydalanuvchigaaloqador bo'lgan, uning ehtiyojlari uchun kerakli bo'lgan ob'yekt yoki ma'lumotlar miqdori kam. Lekin foydalanuvchi allaqchon ushbu sayt „girdobi“ga tushib bo'ldi. Yuqoridagi fikrlarim bilan internet faqat salbiy yo'nalishda foydalanadigan ob'yekt demoqchi emasman. Aynan internet sababli hozirgi kunda kutubxonalarga borishning hojati qolmayapti. Xohlagan kishi xohlagan narsani undan topa oladi. Ba'zi shaxslar aynan internet orqali ham qo'shimcha kasb, qo'shimcha malumot va ko'nikmaga ega bo'lishadi. Boshqa bir tomondan esa har bir narsaning ham ijobiy va salbiy tomonlari bor. Fuqarolarga alohida, individual bu turdagi muammolarga yechim topishni o'rgatish yoki maslahat berish imkonsiz hisoblanadi, bizning vazifamiz esa shunchaki yo'llanma berish, xolos. Zotan, ushbu maqolam bilan jamiyatdagi ba'zi muammolarga yechim topishga qanchadir miqdorda hissam tegsa, mamnun bo'lardim. Zero, davlatimiz tinchligi, rivojlanishi uchun faqatgina sarhadlarimizda turgan insonlar emas, balki har birimiz kichik yo'llar, oz miqdorda bo'lgan hissamiz bilan ham javobgarmiz.

References:

1. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2006
2. <https://suntrustblog.com/uz/65-pros-and-cons-of-the-internet/>
3. <http://uchildiz.uz/internetning-yoshlar-ongiga-tasiri/>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/>
5. “Internet olamining ko'p tarmoqli hayoti” jurnali -2019